

## **MAKTABGACHA YOSH DAVRNING PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI**

**ADPI maktabgacha ta’lim sirtqi yo‘nalishi  
1-kurs 101-guruh talabasi Abdurahmonova Gulmira**

**Annotatsiyasi:** Ushbu tezisda bolalarning psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligini holatini o‘rganish har xil turdagi o‘yinlarga qiziqtirish ularga mativatsiya berish lozimligi yoritilgan,

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha ,bolalar ,o‘yingohlar, pedagog, ta’lim, ustoz maqsad .

Ma’lumki pedagog ta’lim sohasida olib borayotgan ishlari da oqilona fikr yuritish kerakligini o‘zida his qilishi darkordir. Maktabgacha yosh davrning psixik rivojlanish xususiyatlari bunda har bir bolaning psixik rivojlanish tarixi hisobga olinadi Maktabgacha muassasalari faoliyatini metodik qo‘llanmalar chop etish ularni bola ongida rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar bildiradi.Bolalarni har xil turdagi o‘yinlarga qiziqtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Ularga turli xil turdagi didaktik o‘yinlar o‘rgatish metodikasi mavzusida ish olib boradi.Bolalarda nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. Bola o‘zini o‘zi boshqarish darkor.Ikkinchi tomonidan qaratilgan da tarbiyachi ham o‘zini mehnatini munosib qadrlab natijasini ko‘ra olishi buning uchun bolalarini rivojlanish saviyasini nazorat qilish darkor. Lekin bu jarayonda yosh tarbiyachilar imiz mana shu masalada katta qiyinchilik larga uchraydilar. Bo‘lajak tarbiyachilar da kasbiy metodik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha takliflar tayyorlaydi. Pedagogik malakalari kamchiligini bartaraf etish ni ham hisobga olish zarur.

Ayrim hollarda maktab gacha muassasalari da tarbiyachi bolalarga nisbatan ko‘proq ruhiyatiga ta’siri natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha takliflar tayyorlash ham mumkin.Masalan tarbiyachi bolalarga nisbatan ko‘proq yoqimli qiyofalar vaziyatlarni oldini olish da bolalarga do‘stona munosabatda bo‘lish ularni muassasalari ga kelganda turli xil turdagi o‘yinlar bilan kutib olishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar tayyorlash ham mumkin.

Bizning kelajagimiz egalari bo‘lgan bolalar uchun har qancha harakat qilsak ham oz. Maktabgacha muassasalarida ta’lim jarayoni birinchi turdagi didaktik o‘yinlar o‘rgatish metodikasi mavzusida ish olib borish darkor. Muassasalarda har xil o‘yingohlarini ko‘paytirish va bolalarga turli xil o‘yinlarini o‘rgatish, Tendoshlari bilan birga o‘yinlar o‘ynashlari masalan o‘rtada quyvon o‘yini bunda ikki tomonlama bolalar o‘ynashlari o‘rtada bitta qiz yoki yigit turadi unga to‘p otishadi shunga o‘xshash boshqa o‘yinlar o‘rgatish bolani mustaqil hayotda o‘z o‘rnini topishida, shaxsiy intellektinni shakllantirishda juda ham muhimdir.

Odob axloq qoidalari mustahkam zaminda vujudga keladi. Mustahkam zamin bu donishmad bobo momolarimizning ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lgan. Ahloqli ruhiy hayotiy tajribalari o‘gitlari adolatli yurt rahbarining samimiy yo‘l yo‘riqlari hamda sahovotpesha zotlarning ko‘rsatgan holis yordamidir. Bunda sog‘lom avlod muhitida voyaga yetgan yosh avlod turgan gapki, odobi go‘zal bilimi chuqur taffakuri yuksak mushohodasi keng mas’ulyatni teran his etadigan, jamiyat ravnaqiga hizmat ko‘rsatadigan komil inson bo‘lib shakllanadi.

Ilk bolalik davri. Ilk bolalik davrining oxiriga kelib boshqa faoliyat turlari, masalan, qiyin va produktiv faoliyati (rasm chizish, plastilindan narsa yasash) rivojlana boshlaydi.

Bu yosh davri nutqning rivojlanishidagi senzitiv davri hisoblanadi. 1,5 yoshgacha bola 100 tacha, 2 yoshgacha 300 tacha, 3 yoshgacha 1500 so‘zni o‘zlashtiradi. Tilning grammatik tuzilishini o‘zlashtirish bir necha bosqichga bo‘linadi.

1. Avtonom nutq davri 1-2 yoshda bo‘lib, nutq amorif so‘z o‘zaklardan iborat.

2. 3 yoshgacha davrda esa ona tilining grammatik tuzilishini o‘zlashtira boshlaydi. Ilk bolalik davrida predmetlik faoliyati asosida tafakkur rivojlana boshlaydi.

Tushunishning eng qulay (senzitiv) davri bir yoshdan bir yarim yoshgachadir. Bu davrda bola predmet va jismlarning nomlarini engil o‘zlashtirib oladi. Tadqiqotchi E.K.Kaverlanning tajribasida tasdiqlanganidek bolaning predmetlarni tushunishi quyidagi tartibda yuz beradi:

1) bola eng avval predmetlarning nomlanishini;

2) katta odamlarning va o‘yinchoqlarning nomlarini o‘zlashtiradi;

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

3) tana a`zolarining nomlarini o`zlashtiradi.

Ilk bolalik davrida bola shaxsi shakllanishi boshlanadi. Bolada “men o‘zim” konsepciyasi vujudga keladi. Bu yosh davri 3 yoshlilar krizis davrining yuzaga kelishi bilan tugaydi. Krizisning sababi bolada ma`lum darajada mustaqillikka ehtiyojning paydo bo`lishi, kattalarning esa eski munosabatlar tipini saqlab qolishidir.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kun tartiblarini nazoratga olish bolaning yosh inqirozida kichiklikdan va maktabga borish mas`uliyatini o`z bo`yniga olgan bolalikdagi inqirozdan katta yutuqlar bilan chiqib ketish qanchalar muhim vazifa ekanligini his qilamiz. Bu vazifani mas`uliyat bilan bajarish qiyin emas balki juda qiziqarli mashg`ulot ekanligiga ko`niktirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16- dekabrda “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi URk;-595- son qonuni
2. Nishonava Z.T., Alimova G. K.Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostika Toshkent: “Fan texnologiyalar” , 2019
3. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”
4. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O`zFMJ,2008